

Yerda hayotning paydo bo'lishi



Biz o'zining go'zalligi va ulug'vorligi bilan insonni hayratda qoldiruvchi ajoyib sayyorada yashaymiz. Yer yuzining har bir go'shasi: baland tog'lardan to bepoyon okeanlargacha, qalin o'rmonlardan to keng cho'llargacha betakrordir. Tabiat bizni o'simlik va hayvonot olamining xilma-xilligi bilan lol qoldiradi.




Qiziq, Yer yuzida hayot qanday paydo bo'lgan?

Olimlarning taxmin qilishlaricha, juda qadimda, milliardlab yillar avval, Yer yuzi hozirgidan butunlay boshqacha bo'lgan. Moviy osmon va yashil o'rmonlar o'rnida hamma joyda vulqonlar otilgan, havo esa turli xil gazlarga to'la bo'lgan. Shu paytlarda sayyoramizda odamlar ham, hayvonlar ham bo'lmagan (1-rasm).

Hozirgi kunda Yer yuzining katta qismini qoplagan suv o'sha davrda asta-sekin ulkan okeanlarda to'plana boshlagan. Suv juda issiq bo'lganligi bois, bunday sharoitda hayotning mavjud bo'lmasligi aniq edi.

Yerning asta-sekin sovib borishi natijasida atmosferada hayot uchun qulay sharoitlar paydo bo'la boshlagan. Shu tariqa mo'jiza yuz berib, Yer yuzida **dastlabki tirik organizmlar** paydo bo'lgan (2-rasm).



1-rasm.



2-rasm.


Bular **bakteriyalar** – mikroskopsiz ko‘rib bo‘lmaydigan juda mayda jonzorlar bo‘lgan.



Mikroskop – oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsalarni kattalashtirib ko‘rsatuvchi asbob.

Vaqt o‘tishi bilan tirik organizmlarning tuzilishi tobora murakkablashib borgan. Dastlab **kislorod** ajratuvchi **suv o‘tlari**, undan keyin esa okeanlarda ilk hayvonlar – shaffof soyabonlarga o‘xshash meduzalar va suzgichlari hamda tangachalari bo‘lgan baliqlar paydo bo‘lgan (**3-rasm**).

Dastlab hayot faqat suvda mavjud bo‘lgan, ammo vaqt o‘tishi bilan ba’zi baliqlar havodan nafas olishni o‘rgangan va quruqlikka chiqqan boshlagan.



Shundan keyin **GIGANTLAR DAVRI** boshlangan (**4-rasm**).

Millionlab yillar avval Yer yuzida **DINOZAVRLAR** (qadimgi ulkan jonzorlar guruhi) yashagan. Ular juda xilma-xil: **katta va kichik, o‘txo‘r va yirtqich** bo‘lib, ikki yoki to‘rt oyoqda harakatlangan.




3-rasm.



4-rasm.

Mana, bizga ma'lum bo'lgan bir nechta dinozavrlar:



BRAXIOZAVR – bo'yni uzun ulkan dinozavr. U daraxt barglari bilan oziqlangan.

TRITSERATOPS – boshida uchta shoxi bo'lgan dinozavr. U o'simliklar bilan oziqlangan.

ANKILOZAVR – o'txo'r dinozavr. Uning tanasi suyak plastinalar bilan qoplangan.

PTERANODON – boshining orqa tomonida uzun qirrali toji bo'lgan uchuvchi kaltakesak. U baliqlar bilan oziqlangan.



1

TIRANNOZAVR – kuchli jag'lari bo'lgan ulkan yirtqich.

VELOTSIRAPTOR – tez va chaqqon yirtqich.





Dinozavrlar – sudralib yuruvchilar guruhi bo‘lib, ular sayyoramizda 160 million yildan ortiq yashagan. Keyinchalik hamma narsani o‘zgartirib yuborgan voqea sodir bo‘lgan.

Taxminan 66 million yil avval Yer yuziga ulkan **meteorit*** qulagan. U kuchli yong‘inlarni keltirib chiqargan va havoga ulkan chang bulutini ko‘targan. Shu sababli quyosh nuri Yer sathiga deyarli yetib kelmagan, havo sovib ketgan, o‘simliklar nobud bo‘la boshlagan.

O‘simliklar nobud bo‘lgach, o‘txo‘r dinozavrlar oziqasiz qolgan va ular ham birin-ketin nobud bo‘la boshlagan. O‘txo‘rlar qirilib ketgach, yirtqichlar uchun ham oziqa qolmagan. Shu tariqa dinozavrlar asta-sekin yo‘q bo‘lib ketgan.

* **Meteorit** – kosmosdan tushgan tosh, metall parchasi.



1. Yer yuzi dastlab qanday bo‘lgan?
2. Dastlabki tirik organizmlar qayerda paydo bo‘lgan?
3. Qadimgi okeanlarda qanday hayvonlar yashagan?
4. Dinozavrlarning qanday turlarini bilasiz?
Nima uchun ular yo‘q bo‘lib ketgan?



Nima deb o‘ylaysiz, Yer yuzida hayot paydo bo‘lishi uchun qanday sharoitlar zarur bo‘lgan?



Yerda yashagan dastlabki tirik mavjudotlardan biri (masalan, bir hujayrali organizm yoki dinozavr) nomidan zamonaviy odamlarga xat yozing. Xatda o‘z hayotingiz haqida gapirib berishingiz va tilaklaringizni bildirishingiz mumkin.

